

**MUSTAQILLIK DAVRIDA IJTIMOY-FALSAFIY TADQIQOTLAR TAHLILI  
(1990-1994 YILLAR)****АНАЛИЗ СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ ПЕРИОДА  
НЕЗАВИСИМОСТИ (1990-1994 ГГ.)****ANALYSIS OF SOCIO-PHILOSOPHICAL RESEARCH DURING THE PERIOD OF  
INDEPENDENCE (1990-1994)****Ortiqov Otabek**

Qo'qon davlat pedagogika instituti dotsenti v.b, f.f.d.(PhD)

**Annotatsiya**

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda sho'rolar davrida nohaq unutilgan yoki rad etilgan millatimizning tarixiy-madaniy, ijtimoiy-falsafiy va ma'naviy-axloqiy merosini tadqiq qilish imkoni tug'ildi. Shu vaqtgacha o'rganilishi ta'qiqlab qo'yilgan yoki monistik uslubda o'rganilgan mutafakkirlarning nomlarini tiklash, ularning merosini milliy demokratik nuqtai nazardan tahlil qilish obyektiv zaruriyatga aylandi. Ushbu tadqiqotlarga yangi metodologiya nuqtai nazaridan yondashish, ularni barkamol avlodni tarbiyalashda va ma'naviyat rivojidadagi ahamiyatini ko'rsatib berish hozirgi kunda eng dolzarb masalalar sirasiga kiradi.

Tadqiqot maqsadi diyorimizdagi ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixini o'rganish va uni mustaqillik yillarida yoritish borasida katta ilmiy-tadqiqot ishlari olib borildi va hozir ham olib borilmoqda. Mavjud empirik ateriallarni to'plash, umumlashtirish va xolisona baho berish vaqti keldi. Shunday tadqiqot kelgusi ilmiy-nazariy ishlarimizning yo'nalishtirish to'g'ri belgilashga, diqqatimizni muhim va dolzarb masalalarga qaratishga yordam beradi. Mustaqillik yillarida yangi ijtimoiy falsafa shakllandi. maqolada mustaqillik dastlabki yillarida o'tkazilgan ilmiy izlanishlar tahlili ko'rib chiqilgan. Faylasuf olimlar kitoblari, asarlar qisqacha mazmuni yoritib berilgan.

Tadqiqot metodlari: Analiz va sintez, retrospektiv tahlil, kontent-analiz, dialektik yondashuv, tarixiylik, vorisiylik, qiyosiy tahlil, kuzatuv kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalari sifatida quyidagilarini ko'rsatish mumkin:

sho'rolar davrida o'tkazilgan tadqiqotlarni tanqidiy tahlil qilish;

mustaqillik yillarida yangi ijtimoiy-falsafiy tafakkurning obyektiv ma'naviy zarurat ekanini asoslash;

milliy mafkura bilan yangi ijtimoiy-falsafiy tafakkurning dialektik uyg'un voqeliklar ekanini ko'rsatish;

Xulosa sifatida shuni aytilish mumkinki, O'zbekistan Respublikasi mustaqil taraqqiyotga o'tgach demokratik xuquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyati barpo etish, yuksak ma'naviyatli barkamol avlodni shakllantirishni o'zining strategik maqsadi qilib qo'ydi. Ushbu strategik maqsadga yetishning samarali yo'llaridan biri xalqimiz, millatimiz, ijtimoiy-tarixiy, siyosiy, ma'naviy tajribasiga murojaat etib, undagi milliy taraqqiyotga mos keluvchi qadriyatlarni o'rganish, ularni ma'naviy hayotga tadbiq etishdir.

**Аннотация**

В годы независимости в Узбекистане появилась возможность исследования историко-культурного, социально-философского и духовно-этического наследия нашего народа, несправедливо забытого или отвергнутого в период Советов. Стало объективной необходимостью восстановить имена мыслителей, чьи исследования были запрещены или изучались монистически, и проанализировать их наследие с национально-демократической точки зрения. Подойти к этим исследованиям с точки зрения новой методологии, показать их значение в воспитании зрелого поколения и в развитии. Цель исследования - изучить историю общественно-философской мысли в нашей стране и осветить ее в годы независимости. Настало время собрать, обобщить и объективно оценить имеющийся эмпирический материал. Такое исследование поможет правильно определить направления нашей будущей научной и теоретической работы, сосредоточить наше внимание на важных и актуальных вопросах. духовности – один из наиболее актуальных вопросов сегодня. За годы независимости сформировалась новая социальная философия. в статье анализируются научные исследования, проведенные в первые годы независимости. Выделены краткие изложения книг и трудов философов и ученых.

Методы исследования: Использовались такие методы научного познания, как анализ и синтез, ретроспективный анализ, контент-анализ, диалектический подход, историчность, преемственность, сравнительный анализ, наблюдение.

В качестве результатов исследования можно указать следующее:

- критический анализ исследований, проведенных в советский период;

- обоснование того, что новое социально-философское мышление является объективной и нравственной необходимостью в годы независимости;

- показать, что национальная идеология и новое социально-философское мышление являются диалектически гармоничными реалиями;

В заключение можно сказать, что после независимого развития Республики Узбекистан ее стратегическими целями являются построение демократического правового государства и свободного

гражданского общества, формирование зрелого поколения с высокой моралью. Одним из эффективных способов достижения этой стратегической цели является изучение ценностей нашего народа, нашей нации, социально-исторического, политического и духовного опыта, совместимых с национальным развитием, и применение их в духовной жизни.

#### Abstract

During the years of independence in Uzbekistan, the opportunity arose to study the historical, cultural, socio-philosophical and spiritual-ethical heritage of our people, unjustly forgotten or rejected during the Soviet period. It became an objective necessity to restore the names of thinkers whose research was prohibited or studied monastically, and to analyze their heritage from a national-democratic point of view. Approach these studies from the point of view of a new methodology; show their significance in the education of the mature generation and in development. The purpose of the study is to study the history of social and philosophical thought in our country and highlight it in the years of independence. The time has come to collect, summarize and objectively evaluate the available empirical material. Such research will help to correctly determine the directions of our future scientific and theoretical work and focus our attention on important and topical issues. Spirituality is one of the most pressing issues today. Over the years of independence, a new social philosophy has been formed. The article analyzes scientific research conducted in the first years of independence. Brief summaries of books and works of philosophers and scientists are highlighted.

Research methods: Such methods of scientific knowledge as analysis and synthesis, retrospective analysis, content analysis, dialectical approach, historicity, continuity, comparative analysis and observation were used.

The results of the study include the following:

- Critical analysis of research conducted during the Soviet period;
- Justification that new social and philosophical thinking is an objective and moral necessity in the years of independence;

- show that national ideology and new social and philosophical thinking are dialectically harmonious realities;

In conclusion, we can say that after the independent development of the Republic of Uzbekistan, its strategic goals are the construction of a democratic rule of law state and a free civil society, the formation of a mature generation with high morals. One of the effective ways to achieve this strategic goal is to study the values of our people, our nation, socio-historical, political and spiritual experience, compatible with national development, and apply them in spiritual life.

**Kalit so'zlar:** mustaqillik, ijtimoiy-falsafiy, tarixiy-diniy meros, milliy g'oya, milliy mafkura, nazariy, empirik, yangi ijtimoiy-falsafiy tafakkur, milliy taraqqiyot konsepsiyasi.

**Ключевые слова:** независимость, социально-философское, историко-религиозное наследие, национальная идея, национальная идеология, теоретическое, эмпирическое, новое социально-философское мышление, концепция национального развития.

**Key words:** independence, socio-philosophical, historical and religious heritage, national idea, national ideology, theoretical, empirical, new social and philosophical thinking, the concept of national development.

#### KIRISH

Mustaqillik yillarida o'lkamiz xalqlarining diniy-irfoniy qarashlarini, merosini o'rganishda haqiqatan ham renessans, uyg'onish ro'y berdi. Bu borada yozmagan, fikr yuritmagan qalam, ijod ahli yo'q, ular tomonidan chop etilgan asarlar, monografik tadqiqotlar, kitoblarni hatto sanash imkoni yo'q. Shuning uchun biz, mavzu doirasini haddan tashqari kengaytirib yubormaslik uchun faylasuflarning izlanishlariga murojaat etish bilan cheklanishga majburmiz.

#### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mustaqillikning dastlabki, 1990-1993 yillarda ijtimoiy-falsafiy izlanishlarda "tashqaridan kuzatish", ya'ni SSSR ning tarqalishi qanday ijtimoiy-siyosiy oqibatlarga, yangiliklarga olib kelar ekan degan pozitsiya ko'zga tashlanadi. Masalan, K.Xudoyberganovning 1990 yili nashr etilgan monografiyasida [1] milliy masalalar va SSSR taqdiri keng muhokama qilinayotgan, jamiyatning yangi bir taraqqiyot bosqichiga o'tayotgan davr ruhi ham, ta'siri ham sezilmaydi. Shubhasiz, monografiya Qoraqalpog'istondagi ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixini o'rganish borasida o'tkazilgan yirik tadqiqotdir. Ammo u eskicha markscha-lenincha falsafaga qurilgan. Shunday yondashish boshqa jamoaviy tadqiqotda[2] va monografiyalarda[3] ham ko'zga tashlanadi. Chamasi ijtimoiy-falsafiy fikrlar mamlakatda ro'y berayotgan ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ruhiy jarayonlarni qamrab olishga va baholashga tayyor emas edi. Shuning uchun ham I.A.Karimov har bir ma'ruzasida, chiqishida, endi O'zbekiston mustaqil davlat ekanini, u ichki va tashqi siyosatini o'zi belgilashi, bozor iqtisodiyoti talablariga muvofiq yashashi, rahbar xodimlar, ayniqsa, ziyolilar, ilm-fan ahli milliy g'oyani o'z hayotining, fikrlash tarzining dasturilamali qilib olishini qayta-qayta takrorlagan.

To'g'ri, 90-yillarning boshida o'lkamiz xalqlarining tarixiy va diniy merosini o'rganishga oid asarlar, to'plamlar chop etilgan. Ular qatorida akademik M.M.Xayrullayev muharrirligi ostida "Iz istorii sufizma: istochniki i sotsialnaya praktika" (1991 yil), Imom at-Termiziyning "Shamoli Muhammadiyya" (1991 yil), "Iz istorii drevnix kultov Sredney Azii. Xristianstvo" (1991 yil), Beruniyning "Ruhiyat va ta'lim-tarbiya haqida" (1992 yil), Shoshiyning "Zakotnoma. (Imom A'zam

mazhablarida)" (1991 yil), I.Xudoyberdiyevning "Islom, shaxs va milliy psixologiya" (1993 yil), A.Avloniyning "Turkiy Guliston yohud axloq" (1992 yil), "Muhammad payg'ambar qissasi" (1991 yil), Muhammad Xuzariyning "Hyp-ul yaqin" (tarjima qilingan, 1992 yil), Izzat Sultonning "Bahovuddin Naqshband adabiyoti" (1993 yil), Nasafiyning "Hazrat Bahovuddin Nakshbandiy" (1992 yil), Imom Ismoil Al-Buxoriyning "Al-adab al-Mufrad. Adab durdonalari" (1990 yil), YE.Berezikovning "Svyatiye liki Turkestana" (1992 yil), "Axloq-odobga oid hadis namunalari" (1990 yil), A.Sog'uniyning "Tarixi Muhammadiy" (1991 yil) kabi asarlar chop etildi. Bu davrdagi eng muhim voqea "Qur'oni Karim" ning o'zbek tiliga o'girilib, 1991 yili chop etilishi bo'ldi.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu yillardagi ilmiy tadqiqotlarda hali eski mafkuraning izlari sezilib turadi, yangi ijtimoiy-falsafiy tafakkurning shakllanishi uchun milliy g'oyaning konseptual asosi ishlab chiqilishi, bu borada ma'lum bir tajribalar to'planishi, xullas empirik materiallar yig'ilishi zarur edi. Bunday materiallar dissertatsion tadqiqotlarda yig'ila boshladi. Bu o'rinda M.Abdullayevning "Estetik madaniyatning milliy o'ziga xosligi va taraqqiyotining asosiy omillari" (1994 yil), T.U.Abdullayevning "Turmush sohasida milliy va umuminsoniy qadriyatlar dialektikasi" (1992 yil), O'.M.Abilovning "Mustaqil O'zbekiston tarixiy taraqqiyoti hozirgi bosqichining optimistik mohiyati" (1994 yil), B.Aliyevning "Bozor munosabatlarining qaror topish sharoitida mehnat jamoasi ijtimoiy funksiyalarining o'zgarishi" (1993 yil), S.Atamuradovning "Jamiyatni yangilash jarayonida milliy madaniyat va milliy o'zlikni anglash (ijtimoiy-falsafiy aspekt)" (1992 yil), B.K.Iminovning "O'zbekiston Respublikasi: manfaatlar, siyosat va mafkura manbai" (1994 yil), I.Karimovning "Iymon hodisasining bilish, ruhiyat va ijtimoiyotga doir nodir xususiyatlarining falsafiy tahlili" (1993 yil), G'.Najimovning "Xalq an'analari va madaniyat" (1993 yil), R.Nosirovning "Abu Rayxon Beruniy asarlarida haqiqat masalalari", "O'rta Osiyo ilk o'rta asarlar davri (IX-XII asrlar) falsafasida bilish muammosi" (1990 yil), N.M.Nuriddinovning "O'rta Osiyoda XVI-XVII asrlardagi ijtimoiy-falsafiy fikr tarixidan" (1994 yil), T.Oqmurodovning "Islomning jamiyat ma'naviy va axloqiy hayotidagi o'rni va ilmiy dunyoqarash muammolari" (1992 yil), I.R.Ramazonovning "Shahar bilan qishloq aholisining sotsial hayot sharoitlarini yaqinlashtirish muammolari" (1992 yil), I.Saifnazarovning "Hozirgi zamon mehnat jamoalarining ijtimoiy-axloqiy mohiyati" (1992 yil), Sh.B.Samatovning "Hozirgi bosqichda milliy madaniyatlar ravnaqining xususiyatlari" (1991 yil), F.S.Soliyevaning "Xalq madaniy an'analari: shaxs ongida milliylik va baynalmilallik" (1994 yil), B.T.To'ychievning "Jamiyat siyosiy madaniyatini shakllantirishning metodologik tahlili" (1991 yil) va I.Xo'jamuradovning "O'zbek xalq milliy (etnik) o'zligini anglashning shakllanishi muammolari unga islomning ta'siri" (1994 yil), R.T.Shodiyevning "Tasavvuf ta'limotining O'rta Osiyo xalqlari ma'naviy hayotidagi o'rni (IX-XIII asrlar)" (1993 yil), J.Y.Yaxshilikovning "Hozirgi davrda O'zbekistonning sotsial-iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyotining obyektiv va subyektiv omillari dialektikasi" (1993 yil), A.Q.Qodirovning "Faoliyat, bilish, axloqiy ideal: ijtimoiy-falsafiy tahlil" (1991 yil), U.H.Qoraboyevning "An'anaviy xalq madaniyati: tiklash va rivojlantirish tendensiyalari" (1993 yil), N.H.Hakimovning "Shaxsning siyosiy madaniyatini shakllantirish" (1991 yil), E.Hoshimovning "Ekologiyada global, regional va lokalik dialektikasi" (1992 yil) mavzusida yoqlangan doktorlik dissertatsiyalarini keltirish mumkin.

### TAHLIL VA NATIJALAR

Ushbu tadqiqotlarda milliy mafkura va milliy demokratik taraqqiyot konsepsiyasi ustunlik qilmasa-da, ularda xalqimizning, millatimizning o'ziga xos an'analari, ijtimoiy hayot tarzi, tarixiy merosini asrash, islomiy qadriyatlardagi pozitiv xususiyatlarni anglashga qaratilgan tahlillar, fikrlar mavjuddir. Doktorlik dissertatsiyasi kunaro o'zgaradigan ijtimoiy hayot talablari ketidan chop olmaydi, u uzoq yillar davomida olib borilgan nazariy va empirik izlanishlar mahsuli sifatida shakllanadi. Shuning uchun 1990-1994 yillarda himoya qilingan dissertatsiyalar va chop etilgan monografiyalarda eski mafkura va falsafa ta'siri saqlanib qolishi tabiiy holdir.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Mustaqillikning dastlabki, 1990-1993 yillarda ijtimoiy-falsafiy izlanishlarda "tashqaridan kuzatish", ya'ni SSSR ning tarqalishi qanday ijtimoiy-siyosiy oqibatlarga, yangiliklarga olib kelar ekan degan pozitsiya ko'zga tashlanadi. Shuning uchun ham I.A.Karimov har bir ma'ruzasida, chiqishida, endi O'zbekiston mustaqil davlat ekanini, u ichki va tashqi siyosatini o'zi belgilashi, bozor iqtisodiyoti talablariga muvofiq yashashi, rahbar xodimlar, ayniqsa, ziyolilar, ilm-fan ahli milliy g'oyani o'z hayotining, fikrlash tarzining dasturilamali qilib olishini qayta-qayta takrorlagan.

**ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Худойберганаев К. Развитие общественно-политической и философской мысли в Каракалпакстане (XIX и начала XX веков). -Нукус, "Каракалпакстан", 1990. (Khudoyberganov K. Development of socio-political and philosophical thought in Karakalpakstan (XIX and early XX centuries). -Nukus, "Karakalpakstan", 1990.)

2. Қаранг: Из истории общественно-философской мысли и вольнодумия в средней Азии. -Т.: "Фан", 1991.- С. 35. (look: From the history of social and philosophical thought and freethinking in Central Asia. -T.: "Fan", 1991.-P. 35.)

3. Қаранг: Нишанов М.Н. Обновление духовной жизни наций. —Т.: Фан, 1992; Ширматова Г. Взаимодействие национальных культур и духовное формирование личности. —Т.: Фан, 1991, ва б. (look: Nishanov M.N. Renewal of the spiritual life of nations. — T.: Fan, 1992; Shimatova G. Interaction of national cultures and spiritual formation of personality. —T.: Fan, 1991, and other)